



2018 yil yanvar oyida Toshkent viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi 2,4 trln.so'mni, o'sish 13,0 %ni tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati -110,3 %
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - 16,4 %
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – 16,3 %

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar oyida Toshkent viloyati korxonalari tomonidan 2,4 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,0 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 12,8 % ga , tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning – 3,0 % ga ,elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalashning 29,8 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 25,5 % ga o'sishi hisoblanadi.

2018 yil yanvar oyida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 336,8 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 14,1 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha chaqiq tosh qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 2,7 martaga, kaolin - 2,2 martaga, shag'al – 83,5 % ga, gaz kondensati – 27,4 % ga, ko'mir - 21,5 % ga va tabiiy gaz – 7,1 % ga oshganligini, shu bilan birga neft qazib olish hajmining 8,2% ga kamayganligini kuzatish mumkin.

2018 yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1753,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 73,5 % ni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 285,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 12,0% ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar oyida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani taqsimlash bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,4 martaga, sovutilgan havo va sovutilgan suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning – 26,3 % ga, elektr energiyaning – 6,4 % ga, gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlarning - 6,3 % ga oshganligi va issiqlik energiyasining 4,0 % ga kamayishi kuzatildi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ni) tashkil etdi.



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 390,8 mlrd..so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar oyiga nisbatan 10,3 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 16,4 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari




2017 yilning yanvar oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 55,7 % dan 2018 yilning yanvar oyida 61,3 % ga oshishi kuzatilmoqda.

Yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da**2017 yil****2018 yil****Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Olmaliq shahar (viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmning 31,2 % ulushini), Bekobod shahar (19,3 %), Zangiota (9,8 %) va Qibray (8,3%) tumanlari, Angren (7,5 %), Chirchiq (5,8 %) shaharlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

*2018 yilning yanvar oyida hududlarning
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da*




Shu bilan birga eng kam ulush Nurafshon sh. (0,1 %), Ohongaron. (0,3 %), Piskent. (0,4 %), Quyichirchiq, Oqqo'rg'on, Bekobod, Parkent (0,5 %) va Bo'ka (2,8 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Chirchiq shahrida (2017 yilning yanvar oyiga nisbatan 175,1 % ga), Yangiyo'l (135,0 % ga), Zangiota tumanlarida (128,2 % ga), Angren (127,7 % ga), Bekobod shaharlarida (126,0 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

2018 yilning yanvar oyida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,6 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 16,3 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Toshkent (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (77,0 %), Yangiyo'l (70,4 %), Yuqorichirchiq (66,3 %), Bekobod tumanlarida va Nurafshon shahrida (62,9 %) kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Bekobod (1,2 %), Olmaliq (1,4 %), Angren (7,6 %) va Oxongaron (7,6 %) shahrida kuzatildi.

2018 yilning yanvar oyida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da

